



UO‘T:632.4

DANAKLI MEVALARDA ZAMBURUG‘ KASALLIKLARINI UCHRASHI

dots. Y.A. Matyakubova, B.O.Aminboyeva 1-kurs magistr
ABU Rayhon beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
yulduz.abdulaziz@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati sharoitida danakli mevalarda uchraydigan zamburug‘ kasalliklari va shaftoli daraxtining fenologik fazalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: shaftoli, jigar rang chirish, kurtak, gul kurtak, meva, fenologik faza, klyasterosporioz.

Аннотация. В статье рассматриваются грибковые заболевания косточковых культур и фенологические фазы персиковых деревьев в Хорезмской области.

Ключевые слова: персик, бурая гниль, почка, цветочная почка, плод, фенологическая фаза, клястероспориоз.

Annotation. The article discusses fungal diseases of stone fruit crops and phenological phases of peach trees in the Khorezm region.

Keywords: peach, brown rot, bud, flower bud, fruit, phenological phase, clasterosporium.

Kirish. Shaftoli (*Prunus persica* (L.) Batsch) – Rosaceae (o‘rikdoshlar) oilasiga mansub, dunyo bo‘ylab o‘stiriladigan barg to‘kuvchi daraxt yoki buta. Shaftoli vatani bo‘lgan Xitoy dunyoda yetakchi ishlab chiqaruvchi bo‘lib, 2020-yilda 15,02 million tonna shaftoli yetishtirgan, bu global ishlab chiqarishning 61,12% ini tashkil etadi. Keyingi o‘rinlarda Ispaniya (1,31 million tonna), Italiya (1,02 million tonna), Turkiya va Gretsiya (0,89 million tonnadan), Eron (0,66 million tonna), AQSh (0,56 million tonna), Misr (0,34 million tonna), Chili (0,31 million tonna) va Hindiston (0,27 million tonna) joylashgan (FAOSTAT, 2020).

Shaftoli yangi meva, konservalangan mahsulotlar, quritilgan gazaklar va meva sharbati sifatida ishlatilishidan tashqari, bahorda oq, pushti yoki qizil gullari tufayli bezak o‘simliklari sifatida ham qadrlanadi.



**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



Tijorat maqsadida shaftoli yetishtirish bir qancha sabablarga ko'ra murakkab jarayondir. Bunga asosiy sabab, shaftolining ko'plab zamburug'li va bakterial kasalliklarga moyilligi bo'lib, bu kasalliklar hosil miqdori va sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, ayrimlari esa daraxtlarning umrini qisqartiradi.

Emi D. Ziems (2009) ma'lumotlarida o'rik va boshqa tosh mevalarda jigarrang chirish Alomatlarni tanib olish va kasallik siklini tushunish, uni nazorat qilishga yordam berish haqida ilmiy izlanishlar qildi. Jigarrang chirish Nebraska shtatidagi o'rik va boshqa tosh mevalarga (gilos, nektarin, shaftoli va olxo'ri) ta'sir qiluvchi keng tarqalgan va halokatli kasallikdir. Bu zamburug' gullarga, mevali shoxlarga (gul va mevali novdalar) va mayda shoxlarga hujum qilishi mumkin. Ushbu kasallikdan ko'p zarar meva pishib etishdan oldin yoki o'rim-yig'im paytida va undan keyin infeksiyalanganida sodir bo'ladi. Atrof-muhit sharoitlari qulay bo'lganda, butun hosil daraxtda butunlay chirishi mumkin. O'rim-yig'imdan so'ng, saqlash vaqtida sovutilmagan mevalar ikki yoki uch kun ichida chirishi mumkin.

Tadqiqot materiallari va uslubi. Tadqiqotlar Xorazm viloyati Yangibazar tumani fermer xo'jaligida 2024-2025 yillar davomida olib borildi. Xronik kasalliklar bilan asosan daraxtlarni ko'p yillik organlari, tanalari, shoxlari va ildiz sistemasi zararlanadi. Bu kasalliklarga monilioz (shoxlarning po'stlog'ini qurishi), qora rak (tana va shox po'stloqlarini qurishi), klyasterosporioz (shoxlari), danakli sitosporoz va boshqalar kiradi. Kasalliklarga qarshi kurash choralarini to'g'ri yo'lga qo'yishda ularning birinchi belgilarini o'z vaqtida aniqlash katta ahamiyatga ega. Lekin kasallikni birinchi belgisini o'z vaqtida aniqlash juda mushkul ishdir. Faqat kasallikni tushgan organlarda ko'zga ko'ringan vaqti shartli ravishda kasallikni paydo bo'lgan payti deb qabul qilinadi.

Kasallikni birinchi ko'zga ko'ringan belgilari vaqtini aniqlash uchun mevazorlarda har 5 kunda 1 marta mevali daraxtlarni tekshirib turiladi va kasallik paydo bo'lgan vaqti aniqlanadi. Bunda atrof-muhit, obi havo, daraxtlar yoshi, navlar hisobga olinishi lozim. Chunki bu faktorlar kasallikni har xil navlarda 1 vaqtda ko'rinmasligiga sabab bo'ladi.

Tahlil va natijalar . Viloyatimizning Yangibozar tumanlarida danak mevali daraxtlarini morfo-biologik xususiyatlari va zamburug' kasalliklarida uchrash darajasi o'rganilgan.



«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



(1-jadval)






Kuzatuvlarimiz jarayonida shaftolining fenologik fazalari kuzatildi

Danakli mevali shaftoli daraxtning o'sish bosqichi tavsifi.		
<i>O'sish bosqichi</i>	<i>Tavsifi</i>	
Tinim	Hech qanday shish ko'rinmaydi. 12.03. 2024	
Kurtakning bo'rtishi	Shishgan kurtaklar sezilarli bo'ladi va yashil to'qimalar ko'rinmaydi. 19.03.2024	
Yon tomondagi yashil qism	Kurtakning yon tomonlarida yashil yoki oq to'qimalar ko'rinadi. 23.03.2024	
Kurtak yorilishi yoki yashil uchi ko'rinadi	Kurtakning tepasi ochilib, alohida gul kurtaklari ko'rinadi. Gilos va olxo'ri meva kurtaklari bir nechta gullarga ega. 25.03.24	
Dastlabki oq kurtak	Gul kurtaklari rivojlanishda davom etmoqda. Kurtaklari ochilib, alohida gullar ajralib chiqadi. Oq gulbarglar ko'rinadi. 27.03.24	



«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya








Oq kurtak/Pushti kurtak (shaftoli)/popkorn	Bu gullashdan oldingi bosqich 29.03.24	
Birinchi gullash	Birinchi gullar ochilganda 31.03.24	
To'liq gullash	Daraxtdagi gullarning hammasi yoki aksariyati ochiq. 1.04.24	
Gulbarg to'kilishi	Gulbarglari daraxtdan tushganda . 8.04.24	
Kosachalarning yorilishi 1-chi, 2-chi qoplama	Meva o'sishi kosachalarning yorilishiga olib keladi, kosacha gulning asosiy qismlaridan hosil bo'lgan. 14.04.24	



«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



Danakning qattiqlashishi	Tashqi ko‘rinishda sezilmaydigan bosqich bo‘lib, bunda mevaning danagi qattiqlashadi. Buni mevaning yarmini kesib ko‘rish orqali tekshirish mumkin. 16.04.24	
Sariq rangli meva	Mevaning asosiy yoki fon rangi yashildan sariq ranggacha o‘zgaradi. 5.06.24	
Mevalar rangini o‘zgarishi	Meva rangi sariqdan qizil ranggacha o‘zgaradi. 20.06.24	
Birinchi hosil yig‘im-terimi	Agar hosil bir necha bosqichda yig‘ilsa, masalan, shaftoli, olxo‘ri va o‘riklar, dastlabki pishgan mevalar yig‘ib olinadi. 1.07.24	
Hosil-yig‘imi	Meva to‘liq pishgan va yig‘ib olishga tayyor. 18.07.24	

Ushbu bosqich “Kurtak yorilishi-Yashil uch-Siqilgan gul bosqichi” deb ataladi va meva daraxtlarining muhim o‘shish bosqichlaridan birini bildiradi.

1. Kurtak yorilishi: Bu bosqichda kurtak ochila boshlaydi. Kurtakning himoya qatlami ajraladi va ichki to‘qimalar ochilib ko‘rinadi. Bu faol o‘shish boshlanishini ko‘rsatadi.



**«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**



2. Yashil uch: Bu bosqichda kurtakning uchida yashil to‘qima ko‘rinadi. Bu bahorgi o‘shning birinchi yaqqol belgilaridan biridir.

3. Siqilgan gul bosqichi: Bu bosqichda kurtak ichidagi alohida gul kurtaklari ko‘rinadi, ammo ular hali ham bir-biriga yaqin joylashgan. Olcha va olxo‘ri daraxtlarida bitta kurtakda bir nechta gul bo‘lishi mumkin.

Ushbu bosqichda daraxtning qishki tinch holatdan faol o‘sh jarayoniga o‘tishini bildiradi. Bu davrda daraxtning ko‘payish organlari (gul kurtaklari) rivojlana boshlaydi. Bu bosqichni kuzatish bog‘bonlar uchun nihoyatda muhim, chunki fungitsid purkash yoki zararkunandalarga qarshi chora-tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish uchun ayni payt hisoblanadi. Bu davrda daraxt kasalliklar va zararkunandalarga nisbatan ko‘proq zararlanadi.

“Oq kurtak-Pushti kurtak (shaftolilar uchun)-Popkorn” bosqichi daraxtlarning gullashdan oldingi muhim bosqichini bildiradi. Ushbu bosqich quyidagicha tavsiflanadi:

1. Oq kurtak: Kurtaklar rivojlanishda davom etadi va ochilishga yaqinlashadi. Kurtakning oq gulbarglari aniq ko‘rinadi.

2. Pushti kurtak (shaftolilar uchun): Bu bosqich shaftoli daraxtlarida kuzatiladi, kurtaklar pushti rangga kiradi va gullashga tayyorlanadi.

3. Popkorn: Ushbu nom kurtaklarning holatini tasvirlash uchun ishlatiladi, chunki kurtaklar to‘liq ochilmasdan oldin popkorn shaklida bo‘lib ko‘rinadi.

Bu bosqich gullashga juda yaqin bo‘lgan va daraxtning eng sezgir davrlaridan biridir. Aynan shu paytda zararkunandalarga qarshi ishlov berish yoki himoya choralari ko‘rish muhimdir, chunki daraxt kasalliklar va boshqa zararli ta’sirlarga nisbatan zaif bo‘ladi.

Yangibazar tumani “Akrombek” fermer xo‘jalikida 16.05.2024 sanalarida bog‘dagi shaftoli daraxtlarining barglarida klyasterosporioz (teshik dog‘lanish) kasalligi uchradi. Barglarda kasallik belgisi dumaloq, avvalgisiga qizg‘ish-siyox, qizil-qo‘ng‘ir dog‘lar hosil qiladi. Dog‘larning rangi daraxt navlariga bog‘liqdir keyinchalik bu dog‘lar och jiggar, xatto jiggar o‘rtasi qizg‘ish-qo‘ng‘ir xoshiyalanadi. Dog‘lar birinchi paydo bo‘lgan davrda ukol o‘rniga o‘xshab ko‘rinsa bir necha kundan so‘ng 2-5 mm ga yetadi, 1-2 haftadan so‘ng qurigan dog‘lar tushib ketadi, barglar esa sochma o‘q bilan otganday teshilib qoladi. Barglarda dog‘lar barg cheti yoki asosiy barg tomiri yonida paydo bo‘ladi, bir biri bilan qo‘shilib tushib ketgach xuddi hasharot barglarni yeganday



«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



bo‘lib ko‘rinadi. Kasallikga uchragan barglarning ko‘pchiligi yoki bir qismi quriydi va to‘kilib ketadi.

Xulosa. Xorazm viloyati sharoitida daraxtlarning immuniteti pasayishiga olib keluvchi omillardan biri bu namlikdir. Zamburug‘ning danakli meva daraxtlarida tarqalishi tashqi muhit omillariga va shaftoli navlariga bog‘liq ravishda turli darajada tarqalganligini ko‘rish mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Рахматов А.Т. “Замбуруғ касалликлари.” Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 2006. №10.
- 2.(Bound, S. A., Foo, E., Gélinas-Marion, A., Nichols, D. S., & Nissen, R. (2022). The Impact of Dormancy Breakers on Hormone Profiles, Fruit Growth and Quality in Sweet Cherry. Agriculture, 12(2), 270.

